



KO'CHIRMA VA O'ZLASHTIRMA GAPLAR.

Urayimova Zebuniso

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 201-guruh talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- November 2023 yil
Ma'qullandi: 15- November 2023 yil
Nashr qilindi: 20-November 2023 yil

KEY WORDS

O'z gap , o'zlashtirma gap, ko'chirma gap, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zlashtirma va ko'chirma gaplar haqida ma'lumotlar va gapning bu shakllariga misollar berilgan.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda tilimizga katta e'tibor qaratilmoqda. So'zimiz isboti sifatida o'zbek tilini o'qitish oliy ta'lim muassasalaridagi barcha yo'nalishlar, hattoki sport sohasidagi talabalarning ham o'quv rejasiga kiritilganligini, o'zbek tilini mutaxassislik o'quv predmeti sifatida bosqichma bosqich tizim asosida o'qitish ko'zda tutilganligini alohida urg'u bilan aytishimiz joiz. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bo'lajak kadrlarda ona Vatanimizga bo'lgan mehr-muhabbatni oshirish va tilimizning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari, talaffuz va imlo me'yorlari haqida tushuncha va nazariy bilim shakllantirish, ularning savodxonligini yanada mustahkamlash yuzasidan amaliy malaka hosil qilishdir. Aynan maktab darsliklariga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kunda ko'plab muhokama va mushohadalarga sabab bo'lgan darsliklarning yangilanganligi, bu boradagi hukumat a'zolarining ishlari hamda jamiyat a'zolarining bunga munosabati bevosita mavzumizga bog'liq. Xabaringiz bor, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "2022-2026- yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur tasdiqlash to'g'risida" gi qaroriga muvofiq maktab darsliklariga ko'plab o'zgartirishlar kiritildi. "2022-2026- yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur tasdiqlash to'g'risida" gi farmonda ko'rilgan masalalarning 3- qism a bandida quyidachi yozilgan.

2024- yil 1- sentabrga qadar Milliy o'quv dasturining ta'lim jarayoniga to'liq joriy etilishini, shu jumladan 2022- yil yakuniga qadar 3-,6-,7- va 10- sinflar uchun, 2025- yilgacha qolgan sinflar uchun darsliklar, mashq daftarlari hamda o'quv qo'llanmalari yaratilishi ta'minlansin.¹

Bundan tashqari, Prezidentimizning **O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlari** ham bu farmonni mantiqiy davomidir. Bu borada olib borilayotgan islohotlarning amaliy natijasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining -PF-134-sonli "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur tasdiqlash to'g'risida" gi farmoni.

sifatida o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritilib, qayta nashr etilgan 6- sinf darsliklarini misol qilishimiz mumkin. Yangi chiqarilgan darsliklarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu kitoblarda endi avvalgidek emas, ilmiy va nazariy qonun-qoidalar alohida qoida qilib berilmaydi. O'qtuvchilar mavzu doirasidagi ma'lumotlarni turli xil matnlar, o'yinlar, mushohada va muhokama qilish orqali o'quvchilarga yetkazib berishligi asosiy talab deb qaralmoqda. Namuna sifatida aytishimiz mumkinki, 6-sinfning ona tili darsligidagi "Ko'z nurini asraylik" mavzusi ostida berilgan matnlar, topshiriqlar va savollarga javob berish orqali o'quvchilar amaliy tarzda olmoshlar, fe'llarning zamon va shaxs-songa oid tasniflari, kesim va uning ifodalanishiga doir bir necha misollar keltirishadi va topshiriqlar so'ngida murabbiy mavzuning nazariy qismini tushuntirib beradi. Misol tariqasida, biz bugun fikr yuritadigan "Hadislar hikmati" mavzusini olsak, bu mavzu doirasida ilm oluvchilarda ko'chirma va o'zlashtirma gaplar haqida tushuncha paydo bo'lishi lozim. Mavzuning kirish qismida Imom Buxoriyning "Adab ul - mufrad" asaridan hadislar keltirilgan va ular muhokama qilishligi uchun bir necha savollar berib qo'yilgan. Savollarga javoblar va muhokamalar jarayonida bilim oluvchilar o'zgalarning gaplarini ko'chirma gapga aylantirishdi, amaliy tarzda foydalana olishdi. Nazariy bilimlarni yetkazish maqsadida topshiriqlar so'ngida ushbu qoida keltirilgan.

- **Ba'zan nutqimizda boshqalarning gapini aynan keltiramiz. Birovning aynan keltirilgan gapi ko'chirma gap, o'zimiz aytgan ya'ni so'zlovchining gapi muallif gapi deyiladi. Muallif gapi M yoki m bilan ko'chirma gap esa K yoki k bilan belgilanadi va bular bir biriga nisbatan turlicha joylashgan bo'lishi mumkin. Shu sababli tinish belgilari ham quyidagicha tartibda bo'ladi.**

- | | |
|---------------------|------------------------------|
| 1) M : " K " | 5) M: " K? " |
| 2) M: " K ", - m. | 6) " K? " - m. |
| 3) " K " , - m. | 7) M: " K! " - m. |
| 4) " K , - m, - k " | 8) " K ! " - m. ² |

Shu holatda qoidalar yakunlanadi, o'zlashtirma gaplar haqida tushunchani esa o'quvchi o'zining fikrlash qobiliyati orqali bilishi lozim. Albatta, o'quvchiga shunchaki tashlab qo'yilmagan, unda bu borada tasavvur uyg'otish uchun matn va topshiriq berilganligiga guvoh bo'lamiz. Nazar tashlaydigan bo'lsak, yangilangan darsliklarda asosiy e'tibor bolalarning dunyoqarashi kengayishiga, fikrlash doirasi o'sishiga, savodxonlik va aqliy salohiyati oshishiga qaratilgan. Aynan shu jihati bilan ham eski darsliklardan keskin farq qiladi, ya'ni eski darsliklar kabi "mashqni yozing", "matnни ko'chiring", "topshiriqni bajaring" yo'sinidagi tartib emas, balki "o'ylab ko'ring", "sindoshlaringiz bilan muhokama qiling", "fikringizni bildiring" kabi fikrlashga doir topshiriqlar mavjud.

Nazariy ma'lumotlarga qaytadigan bo'lsak, o'z va ko'chirma gaplar haqida ko'plab olimlar o'zlarining turlicha qarashlarini har xil usulda bildirgan. Masalan **A.G'ulomov va M. Asqarovning "Hozirgi o'zbek adabiy tili"** ilmiy kitobida quyidagi fikrlar aytib o'tilgan.

- So'zlovchi hamma vaqt ham o'z fikrinigina aytib qolmaydi, u ba'zan o'zganing gapini ham o'z nutqi ichida ishlatadi. O'zganing gapini ifoda etuvchi shaxs "muallif" va uning gapi "muallif gapi" deyiladi. Muallifning ma'lum shaxs fikrini o'z nutqi ichida keltirishi "o'zganing gapi" deyiladi. Gapi ifoda qilinayotgan shaxs "so'zlovchi" sanaladi. O'zganing gapi turli xil bo'ladi.

Bularning asosiy tiplari 3 xil.

² Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.143-bet

1. Ko'chirma gap.
2. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap.
3. O'zlashtirma gap.

Boshqalar fikrining leksik , gramatik va semantik xususiyatlari saqlangan holda mustaqil gap shaklida muallif gapi bilan birga ishlatilishiga **ko'chirma gap** deyiladi. "Paxta davlatli turmush demakdir , shuning uchun ham kuchlarimizga zo'r berishimiz kerak " ,- dedi Jo'raboyev.

Ko'chirma gap shakli quyidagicha bo'lishi mumkin .

- Astaxov aytdi: - "Chol bilan suhbatlashishni ko'pdan beri orzu qilaman, lekin qo'lim tegmaydi ".
- Astaxov:- Chol bilan suhbatlashishni ko'pdan beri orzu qilaman, lekin qo'lim tegmaydi ,- dedi.
- - Chol bilan suhbatlashishni ko'pdan beri orzu qilaman, lekin qo'lim tegmaydi ",- dedi Astaxov .

Ba'zan o'zganing gapi ko'chirma gap bilan o'zlashtirma gap oralig'idagi holatda bo'ladi. Bunda o'zganing fikri muallif gapisiz - so'zlovchining ishtirokisiz bayon qilinadi, ya'ni muallif ko'chirma gapdagi so'zlovchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun bunday gaplar **o'ziniki b'lmagan ko'chirma gaplar** hisoblanadi. Masalan :

-Sultonov senga ta'na qiladi-yu ,biroq o'zini o'ylaydi. Ish kam bo'lsa- yu...shuhrat ko'p bo'lsa mana asl maqsadi qayerda ."

Bu gapda ko'chirma gap so'zlovchisi (Sultonov) nomidan muallifi o'zi gapirgan. Uning gapi: " Ish kam bo'lsa-yu ,shuhrat ko'p bo'lsa " - hech o'zgarishsiz leksik, gramatik, semantik xususiyatlari deyarli saqlangan holda keltirilgan. Bu jihatdan u ko'chirma gapga o'xshaydi . Lekin bu gap uning kimga qarashli ekanligini ko'rsatuvchi muallif gapining yo'qligi bilan ko'chirma gapdan farq qiladi .

Muallifning o'zganing gapini mazmunini saqlab leksik , gramatik va semantik xususiyatlari o'zlashtirib bayon qilishi **o'zlashtirma gap** deyiladi . Misol qilib keltirishimiz mumkin.

-Astaxov chol bilan suhbat qilishni orzu qilganini, lekin qo'li tegmaganini aytdi.

O'zganing gapi o'zlashtirma gap ko'rinishida ham berilishi mumkin. Bunda muallif boshqalarning gapini gramatik va ayrim leksik leksik xususiyatlarini o'zgartirgan holda o'zlashtirib , hikoya qilib beradi ³.

Demak, o'zga nutqini berishning yo'llari ko'p va uning eng yaxshi namunalarini - ko'chirma va o'zlashtirma gaplardir.

Xuddi shunday ilmiy adabiyotlardan biri **A. Abdurahmonov, Sh. Shoabdurahmonov va P. Xojiyevlar muharrirlik ostida nashr etilgan "O'zbek tili grammatikasi " ilmiy asarining 2- jildida** o'zlashtirma va ko'chirma gaplar haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan.

- So'zlovchi doimo o'z fikrini bayon qilib qolmay, boshqalarning gapini hech o'zgarishsiz yoki mazmunini saqlagan holda, gramatik va ayrim leksik xususiyatlarini o'zgartirib ifodalashi mumkin. Mazmuni, gramatik va leksik xususiyatlari o'zgartirilmay aynan berilgan o'zgalarning gapi- **ko'chirma gap**.

- G'o'zalar allaqachon gulga kirdi,- dedi Oyqiz.

³ A.G'ulomov va M.Asqarova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" T., "O'qituvchi", 1965.294-bet.

O'zganing gapi ma'lum shaxsning fikrini muallif gapi orqali ifodalanishidir. O'zganing gapini bayon qilib beruvchi **muallif**, uning gapi **muallif gapi** deyiladi. Kimning gapi ifoda qilinayotgan bo'lsa, u **so'zlovchi** sanaladi. Doim boshqalarning gapi ko'chirilib, aynan berilib qolmasdan, ayrim vaqtda avtorning gapi ham ko'chirilib o'zganing gapi shaklida berilishi mumkin. Bunda uning fikri o'zganing gapi va muallif gapini biriktiruvchi gramatik vositalar orqali bog'langan bo'ladi⁴. Misol uchun,

- Mening yo'qlab kelganimni ko'rsa, dalda bo'ladigan biror so'z aytsam, zorayiki darmon bo'lsa deb kutdim. (A. Qahhor) .

Qo'shma gap qismi **G'. Abdurahmonov**ning nazariy qarashlari asosida yoritilgan "**Hozirgi o'zbek adabiy tili**" ilmiy manbasida esa quyidachi holatga guvoh bo'lamiz.

-O'zgalar nutqini ifodalashning yo'llari turli- tumandir. Shulardan biri **ko'chirma gap**. O'zganing nutqi shakl va mazmun jihatidan o'zgartirilmay tinglovchiga yetkaziladi. Bunda o'zganing nutqidagi leksik, gramatik xususiyatlar saqlanadi: uning stili, modadlik ottenkalari, intonatsiyasi, o'rni, tartibi va boshqalar. Bunda avtor nutqi asosiy rol o'ynaydi. Demak, avtor nutqi bilan ko'chirma gap qator qo'llaniladi.

So'zlovchi ba'zan o'zga nutqining mazmunini saqlab, shaklini o'zgartirib berishi mumkin. Bunday vaqtda o'zga nutqining o'ziga xos xususiyatlari kam saqlanadi. Sababi avtor o'sha mazmunni o'z so'zi bilan berishga harakat qiladi. Natijada, gap strukturasi bir qancha o'zgarishlar bo'ladi.

So'zlovchining nutqini so'zma- so'z berishning hojati bo'lmagan paytda **o'zlashtirma gap** qo'llaniladi. O'zlashtirma gaplar turmushda ko'p ishlatiladi: partiya, sovet, xo'jalik masalalari bo'yicha majlislarda, kengashlarda sessiya va boshqa shu joylarda so'zlanadigan nutqlar ko'chirma gap shaklida emas ko'proq o'zlashtirilgan holda, avtor so'zi bilan beriladi. Chunki o'zlashtirma gap katta jumalarni qisqartirib aytishga qulaylik tug'diradi, natijada ko'chirma gap ikkinchi marta avtor tomonidan o'zgartiriladi, avtor birinchi marta ko'chirma gapni o'z gap ichidan o'zgartirmay qo'llasa ikkinchi marta u ko'chirma gapni gapiga yedirib, o'z uslubida qaytadan ishlab chiqadi. Bu o'zgarishlar natijasida ko'chirma gapning tarkibidagi kishilik olmoshlari berilmay va fe'llardagi shaxs-son kategoriyalari ko'rsatilmay, butun gap avtor nomidan uchinchi shaxs orqali ifodalanadi:⁵

- Bek Ko'rsheymat kelganini, uning qumqishloq yo'liga chiqish haqidagi buyrug'ini Rahmonqulga so'zlab berdi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'zlashtirma gap asosida ko'chirma gap yotadi, lekin hozirgi o'zbek adabiy tilida, ikkalasi ham barobar qo'llaniladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning " 2022-2026- yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur tasdiqlash to'g'risida " gi qonun. 2022- yil.
2. .A.G'ulomov va M. Asqarovning. " Hozirgi o'zbek adabiy tili".-Toshkent, "O'qituvchi ", 1965. 560-bet.
3. A.Abdurahmonov, Sh.Sh.abdurahmonov va P. Xojiyev. "O'zbek tili gramatikasi" .II tom.- T., "Fan", 1976.560-bet.

⁴A.Abdurahmonov, Sh.Sh.abdurahmonov va P.Xojiyev." O'zbek tili gramatikasi".II tom.T., "Fan"1976. 457-458-betlar.

⁵ G'.Abdurahmonov." Hozirgi o'zbek adabiy tili " " O'qituvchi" nashriyoti Toshkent – 1979.195-bet

4. G'. Abdurahmonov . "Hozirgi o'zbek adabiy tili ".-Toshkent. " O'qituvchi" nashriyoti. - 1979. 204- bet
5. . Ona tili [Matn]: 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022-224 bet.
6. .ARABBOYEVA M.A. ONA TILI DARSLARI ORQALI O'QUVCHILARNING IJTIMOY EMOTSIONAL – FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH.

